

Reja:

- * 1. Pestalotssining hayoti va ijodi
- * 2. Pestalotssining kitoblari
- * 2. Pestalotssining ilgari surgan didaktik qoidalari

* Shvetsariyalik mashhur pedagog
Ivan Pestalotssi 1746-yilda
Neuchâtel shahrida shifokor oilasida
dunyoga kelgan. Boshlang'ich va
lotin (o'rta) maktabni
tamomlagandan keyin yuqori
maktab (Kollegium
Karolinum)da o'qigan. Asosan
ijtimoiy fanlar

* o'qitiladigan bu maktab XVIII asr
Fransiya ma'rifatchilarining ta'siri
ostida rivojlangan Shvetsariya
burjua-demokratik fikrlarining
markazi edi. Unda Pestalotssi
Shvetdariyadagi
burjua-demokratik islohotlar
o'tkazilishini talab qilgan ilg'or

* Bu sohada targ'ibot yurgizgani uchun u va yana bir necha talaba qamoqqa olingan. Pestalotssi zamonasida Shvetsariya aholisi qashshoq yashagan qoloq mamlakat bo'lib, ayniqsa dehqonlarning ahvoli og'ir ular orasida yeri yo'q kambag'allar ko'p edi.

* Pestalotssining dunyoqarashi xalq ommasining mashaqqatli hayotini yaxshi bilishi va uni bevosita kuzatish hamda fransuz ma'rifatchilarining, xususan, J.J.Russoning g'oyalari bilan tanishish natijasida shakllandi.

* U o'z umrini xalq xizmatiga bag'ishladi, dehqonlarning ahvolini yengillashtirishga harakat qildi. Shu maqsadda u <<Gertruda o'z bolalarini qanday qilib o'qitadi>>, <<Onalar kitobi yoki onalar uchun o'z bolalariga kuzatish va gapirishni qanday o'rgatish bo'yicha qo'llanma>>, <<Kuzatish alifbesi>> yoki o'lchash haqida ko'rsatmali qo'llanma>>

* <<Son to'g'risida ko'rsatmali ta'lim>>, <<Oqqush qo'shig'i>> kabi kitoblarni yaratdi.

Pestalotssi dastlab 1761-yilda Neygof qishlog'idan narida Martina plantoyda maktab tashkil qildi. So'ngra Pestalotssi o'zining ijodiy faoliyatini amalda sinash uchun

* 1774-yilda <<Neygof>>da <<Kambag'allar muassasi>>ni ochib, unga 50 nafar yetim va boqimsiz bolalarni to'plab, ularni o'qitish bilan mehnat ta'limini bog'lab olib bordi. Bu yetimxonada bolalar o'qish, yozish va hisob o'rganish bilan birga ip yigirish, to'qish va

* Dehqonchilik bilan shug'ullanishdi. Mazkur muassasani saqlab qolish imkoni bo'lmadi, chunki bolalarning mehnati evaziga yashash og'ir edi. Iogann Genrix Pestalotssining buyuk kashfiyotlaridan biri Shvetsariyada dastlabki xalq maktablarini tashkil qildi.

* Pestalotssi 1798-yil dekabr oyidagi Shvetsariya inqilobi natijasida yetim qolgan 80 bolga mo'ljallangan yetimxonona ochadi. Bu yetimxonaning ish mazmuni uni 1799-yili yozgan „Stansdan bo'limi to'g'risida do'stlaridan biriga xat". Risolasida shunday

* deyiladi : <<Ertalabdan to kechgacha ularga o'zim hamroh edim... Ular yig'lasa, men ham yig'lar edim, ular kulsa, men ham kular edim... Ular nima yesa, men ham shuni yeyman, nima ichsalar, men ham shuni ichardim. Mening o'shalardan boshqa uyim ham, do'stim ham, xizmatchim ham yo'q edi... >>

* Pestalotssi o'zining pedagogik g'oyalari, ayniqsa elementar ta'lim nazariyasini 1800-1804-yillarda Burdgorfdan, 1805-1825-yillarda Iverdon shahrida amaliy ravishda rivojlantirdi. 1800-yili Pestalotssi rahbarligida institut tashkil etildi.

* Pestalotssi bolalarning aqliy kamolotini o'stiruvchi quyidagi didaktik qoidalarni olg'a surdi.

- * 1. Talimning tabiat bilan uyg'unligi
- * 2. Oddiydan murakkabga yo'naltirish
- * 3. Bolani kuch va qobiliyatiga moslashtirish
- * 4. Ko'rgazmalilik.